Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 33
IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR

HUDUD SANOAT TARMOG'IDA DIVERSIFIKATSIYA JARAYONLARI VA ULARNING HOZIRGI HOLATI (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA)

Baxrom Ergashevich Turayev*
Termiz davlat universiteti
✉ tbahrom@mail.ru

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada hududiy sanoat tarmoqlarini diversifikatsiyalashning iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash hamda iqtisodiy xavf-xatarlarni kamaytirishdagi ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot doirasida Surxondaryo viloyatining sanoat tarkibi va tarmoqlar konsentratsiyasi darajasi Herfindahl–Hirschman indeksi (HHI) yordamida baholangan. Tahlillar natijasida viloyat sanoatida to'qimachilik va oziq-ovqat sanoati kabi tarmoqlarning ulushi yuqori ekanligi, HHI qiymati 1587,5 ga teng bo'lib, hudud sanoati o'rtacha konsentratsiyalashganlik darajasiga egaligi aniqlangan. Maqola yakunida hudud iqtisodiyotining tashqi va ichki xavflarga bardoshliligini oshirish uchun yuqori qo'shilgan qiymat yaratuvchi qayta ishlash, kimyo, farmatsevtika va elektrotexnika tarmoqlarini yanada diversifikatsiya qilish bo'yicha taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar

Sanoat tarmoqlari, diversifikatsiya, barqaror rivojlanish, Herfindahl–Hirschman indeksi (HHI), konsentratsiya darajasi, Surxondaryo viloyati, to'qimachilik sanoati, oziq-ovqat mahsulotlari, iqtisodiy barqarorlik, qayta ishlash sanoati.

DOI: 10.5281/zenodo.21743183

KIRISH

Sanoat tarmoqlari diversifikatsiya darajasini baholash hudud yoki mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim аҳамият kasb etadi. Agar sanoat ishlab chiqarishi bir yoki ikki asosiy tarmoqqa haddan tashqari bog'lanib qolsa, ташқи бозордаги narxlarning o'zgarishi, talabning kamayishi yoki xomashyo bilan bog'liq muammolar iqtisodiyotga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Diversifikatsiya darajasini aniqlash orqali sanoat tarkibining qay darajada muvozanatlashgani, qaysi tarmoqlar yetakchi o'rin egallayotgani hamda qaysi yo'nalishlarni rivojlantirish zarurligi aniqlanadi. Bu esa iqtisodiy xavflarni kamaytirish va ishlab chiqarish barqarorligini oshirish imkonini beradi.

Bundan tashqari, sanoat tarmoqlari diversifikatsiyasini baholash investitsiya siyosatini shakllantirishda ham muhim vosita hisoblanadi. Tahlil natijalari asosida iqtisodiyotning qaysi tarmoqlari yetarli darajada rivojlanmagani yoki yuqori salohiyatga ega ekani aniqlanadi. Shu asosda hududiy sanoat siyosatini takomillashtirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va eksport tarkibini kengaytirishga qaratilgan qarorlar қабул қилинади. Ayniqsa, zamonaviy iqtisodiyotda yuqori qo'shilgan qiymat yaratuvchi tarmoqlar ulushini oshirish sanoat diversifikatsiyasining muhim ko'rsatkichlaridan biri sifatida qaraladi.

Herfindahl–Hirschman indeksi (HHI) sanoat tarmoqlari, bozordagi korxonalar yoki iqtisodiy tarkibning konsentratsiya darajasini baholashda keng qo'llaniladigan ko'rsatkich hisoblanadi. Ushbu indeks iqtisodiyotda ma'lum bir tarmoq yoki subyektning umumiy hajmdagi ulushi asosida hisoblanadi va diversifikatsiya darajasini aniqlash imkonini beradi. Agar ishlab chiqarish bir nechta yirik tarmoqlarda jamlangan bo'lsa, HHI qiymati yuqori chiqadi, aksincha, ishlab chiqarish ko'plab tarmoqlar o'rtasida nisbatan teng taqsimlangan bo'lsa, in-

deks past qiymatni ko‘rsatadi. Shu sababli HHI sanoat tarkibining muvozanatlashgan yoki yuqori darajada konsentratsiyalashganligini aniqlashda samarali vosita hisoblanadi.

HHI quyidagi formula asosida hisoblanadi [1, 762]:

$$HHI = \sum_{i=1}^{n} s_i^2 \quad (1)$$

Bu yerda s_i - i-tarmoqning umumiy sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (foiz yoki ulush ko‘rinishida), n esa tarmoqlar sonini bildiradi. Agar ulushlar foizlarda olinadigan bo‘lsa, indeks qiymati odatda 0 dan 10 000 gacha oraliqda bo‘ladi. HHI qiymatining past bo‘lishi yuqori diversifikatsiyani, yuqori bo‘lishi esa sanoatning ayrim tarmoqlarda jamlanganligini anglatadi. Amaliyotda odatda 1000 gacha bo‘lgan qiymatlar past konsentratsiya, 1000–1800 oralig‘i o‘rtacha konsentratsiya, 1800 dan yuqori qiymatlar esa yuqori konsentratsiya sifatida talqin qilinadi.

HHI indeksining asosiy afzalligi shundaki, u sanoat tarkibidagi barcha tarmoqlarning ulushini bir vaqtning o‘zida hisobga oladi va yirik tarmoqlarning ta’sirini kuchliroq aks ettiradi. Shu jihatdan u oddiy ulush ko‘rsatkichlariga nisbatan ancha aniq natija beradi. Bundan tashqari, indeksni hisoblash sodda bo‘lib, turli hududlar, davrlar yoki mamlakatlar kesimida qiyosiy tahlil o‘tkazish imkonini yaratadi. HHI ko‘rsatkichi iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, investitsiya siyosatini shakllantirish hamda sanoat tarmoqlarini rivojlantirish bo‘yicha strategik qarorlar қабул қилишда муҳим аҳамиятга эга.

HHIni baholash uchun Surxondaryo viloyati sanoat tarmoqlari ulushlari hamda uning kvadratlari hisoblab chiqildi (1-jadval)

1-jadval

Surxondaryo viloyati sanoat tarmoqlari ishlab chiqarish hajmi va ulushi[1]

T/r	Tarmoqlar	Summasi	Ulushi (s)	s^2
1	Tog‘- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	668,0	3,5	12,6
2	Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	3183,4	16,9	285,7
3	Ichimliklar ishlab chiqarish	143,5	0,8	0,6
4	Tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	0,0	0,0	0,0
5	To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	5983,2	31,8	1 009,3
6	Kiyim ishlab chiqarish	634,9	3,4	11,4
7	Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	22,6	0,1	0,0
8	Yog‘och va po‘kak buyumlar (mebeldan tashqari), pohol va to‘qish uchun materiallardan buyumlar ishlab chiqarish	264,1	1,4	2,0
9	Qog‘oz va qog‘oz mahsulotlari ishlab chiqarish	5,6	0,0	0,0
10	Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	38,8	0,2	0,0
11	Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	309,3	1,6	2,7
12	Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	36,8	0,2	0,0
13	Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish	129,3	0,7	0,5
14	Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	117,2	0,6	0,4
15	Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	1926,9	10,2	104,7
16	Metallurgiya sanoati	311,3	1,7	2,7
17	Mashina va uskunalardna tashqari tayyormetall buyumlar ishlab chiqarish	1646,3	8,7	76,4
18	Kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish	3,9	0,0	0,0
19	Elektr uskunalar ishlab chiqarish	12,4	0,1	0,0
20	Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish	18,5	0,1	0,0
21	Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	23,3	0,1	0,0

[1] www.surxonstat.uz ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

T/r	Tarmoqlar	Summasi	Ulushi (s)	s^2
22	Boshqa transport uchkunalari ishlab chiqarish	2,5	0,0	0,0
23	Mebel ishlab chiqarish	577,4	3,1	9,4
24	Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	1267,6	6,7	45,3
25	Mashina va uskunalarni ta‘mirlash va o‘rnatish	356,9	1,9	3,6
26	Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash	742,0	3,9	15,5
27	Suv bilan ta‘minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish	407,5	2,2	4,7
	Jami sanoat mahsuloti hajmi, (mlrd. so‘m)	**18833,2**		**1 587,5**

Surxondaryo viloyati sanoat ishlab chiqarish tarmoqlari bo‘yicha Herfindahl–Hirschman indeksi (HHI)ning 1587,5 qiymatga teng chiqishi hudud sanoatining o‘rtacha konsentratsiyalashganligini anglatadi. Mazkur natija sanoat ishlab chiqarishi to‘liq bir yoki ikki tarmoqqa qaram emasligini, biroq ayrim yirik tarmoqlarning ulushi sezilarli darajada yuqori ekanligini ko‘rsatadi. Amaliyotda HHI ning 1000–1800 oralig‘idagi qiymatlari o‘rtacha konsentratsiya darajasi sifatida talqin qilinadi. Bu esa Surxondaryo viloyati sanoatida diversifikatsiya jarayoni mavjud bo‘lsa-da, sanoat tarkibi hali to‘liq muvozanatlashmaganini bildiradi.

Mazkur ko‘rsatkich hudud sanoatida ayrim yetakchi tarmoqlarning ustun mavqega ega ekanligini ko‘rsatadi. Jumladan, tog‘-kon sanoati, oziq-ovqat sanoati yoki qurilish materiallari ishlab chiqarishi kabi yo‘nalishlar sanoat hajmida asosiy ulushni egallayotgan bo‘lishi mumkin. Natijada, ushbu tarmoqlardagi talab, narx yoki ishlab chiqarish hajmidagi o‘zgarishlar butun viloyat sanoatining umumiy holatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, HHI qiymatining 1800 dan past bo‘lishi sanoatda ma’lum darajada tarkibiy xilma-xillik mavjudligini va boshqa tarmoqlar ham iqtisodiy faoliyatda ishtirok etayotganini anglatadi.

XULOSA

Olingan natija Surxondaryo viloyati sanoatini yanada diversifikatsiya qilish zarurligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, yuqori qo‘shilgan qiymat yaratuvchi qayta ishlash sanoati, kimyo, farmatsevtika, elektrotexnika va innovatsion ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirish sanoat tarkibini yanada muvozanatlashtirishga xizmat qiladi. Diversifikatsiyaning kuchayishi hudud iqtisodiyotining tashqi va ichki iqtisodiy xavflarga bardoshliligini oshiradi, yangi ish o‘rinlari yaratadi hamda eksport tarkibini kengaytirish imkonini beradi. Shu sababli HHI ning 1587,5 qiymati Surxondaryo sanoati rivojlanayotganini, biroq sanoat tarkibini yanada takomillashtirish va tarmoqlar o‘rtasidagi muvozanatni kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Hirschman, A. O. The Paternity of an Index. The American Economic Review, 54(5), 1964. - p. 762.
2. Ishmuhammedov A.E. Mintaqaviy iqtisodiyot. Darslik. – T.: TDIU, 2019. – 284 b.
3. Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi. Surxondaryo viloyatining iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi (Statistik to‘plam). – Termiz, 2025.
4. Porter, M. E. Clusters and the New Economics of Competition. Harvard Business Review, 76(6), 1998. - 77-90.